QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.179

GOSPITAL MAKTABI SHAROITIDA TO`RTINCHI SINF O`QUVCHILARINING BILISH FAOLLIGINI O`YIN TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

Hoshimova Gulzoda Oybekovna
Nizomiy nomidagi O’zMPU. “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari” kafedrasi magistranti
Baxodirova Kamola Komilovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU. “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari” kafedrasi magistranti
Rustamova Nozima Fazliddinovna
Nizomiy nomidagi O‘zMPU. “Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari” kafedrasi magistranti

Annotatsiya: Maqolada, uzoq muddat davolanayotgan va sog‘lig‘i sababli ta’lim muassasalariga bora olmaydigan bolalarning ta’limini tashkil etish, shifoxonalarda o‘quv muhiti va o‘quv jarayonini tashkil etish, belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar haqida so‘z yuritiladi. Yevropa va boshqa kasalxona maktablari haqida so’z yuritiladi. O‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirish, bilish jarayonlarini faollashtirish va darsdagi faol ishtirokini ta’minlashning samarali vositalaridan biri ekanligi to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: gospital maktabi, bilish faolligi, didaktik o‘yinlar, interaktiv ta’lim, bilish jarayonlari, pedagogik shart-sharoitlar, ta’lim motivatsiyasi, psixologik-ijtimoiy,individual ta`lim.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы организации обучения детей, проходящих длительное лечение и не имеющих возможности посещать образовательные учреждения по состоянию здоровья, а также организация образовательной среды и учебного процесса в условиях стационара и успешное решение сопутствующих задач. Рассматриваются больничные школы в Европе и других регионах. Особое внимание уделяется использованию игровых технологий как эффективного средства повышения интереса учащихся к обучению, стимулирования познавательных процессов и обеспечения активного участия в занятиях.

Ключевые слова: больничная школа, познавательная активность, дидактические игры, интерактивное обучение, познавательные процессы, педагогические условия, учебная мотивация, психосоциальные аспекты, индивидуальное обучение.

Abstract: The article examines the organization of education for children undergoing long-term treatment who are unable to attend educational institutions due to health issues, as well as the structuring of the educational environment and the learning process within a hospital setting and the successful resolution of associated challenges. Hospital schools in Europe and other regions are examined. Particular attention is paid to the use of game-based technologies as an effective means of boosting students' interest in learning, stimulating cognitive processes, and ensuring active participation in lessons.

Keywords: hospital school, cognitive activity, didactic games, interactive learning, cognitive processes, pedagogical conditions, learning motivation, psychosocial aspects, individualized instruction.

Kirish. Gospital pedagogika zamonaviy ta'lim tizimida alohida o'rin tutadigan va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan soha sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu fan kasal yoki nogiron bolalaring ta'lim olish huquqini ta'minlash, ularning jamiyatga integratsiyasini go'llab-quvvatlash va psixologik-ijtimoiy jihatdan rivojlanishiga yordam berishga qaratilgan.

Gospital so'zi lotincha "hospes" - "mehmon" yoki "hospitium" - "mehmondo'stlik" degan ma'noni anglatib, kasalxona muhitida ta'lim berish jarayonini ifodalaydi. Shu sababli, gospital pedagogika nafaqat ta'lim, balki sog'liqni saqlash va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash sohalari bilan ham uzviy bog liqdir.

Bugungi kunda dunyo bo'ylab millionlab bolalar uzoq muddatli davolanish jarayonida yoki surunkali kasalliklar tufayli oddiy maktab ta'limidan chetda qolmoqda. Bunday holatda gospital pedagogika ushbu bolalarning o'quv jarayonidan uzilib qolmasligini ta'minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Gospital pedagogika kasalxona sharoitida yoki uzoq muddatli davolanish jarayonida bo'lgan bolalarga ta'lim berishga qaratilgan maxsus pedagogik yondashuv sifatida ta'riflanadi. Bu soha an'anaviy ta'limdan farqli o'laroq, o`quvchilarning jismoniy va psixologik holatini hisobga olgan holda individual va moslashuvchan ta'lim dasturlarini taklif etadi. Gospital pedagogika nafaqat bilim berish bilan cheklanmaydi, balki bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va kasallik tufayli yuzaga keladigan izolyatsiyani bartaraf etishga ham xizmat qiladi. Ushbu ta'lim shakli ko'pincha kasalxona ichidagi maxsus sinflar, uyda ta'lim berish yoki masofaviy o'qitish kabi turli formatlarda amalga oshiriladi. Masalan, og'ir kasalliklarga chalingan bolalar uchun o'qituvchilar kasalxona xodimlari bilan hamkorlikda ishlaydi va ta'lim jarayonini davolanish jadvaliga moslashtiradi [2].

Asosiy qism. Gospital pedagogika sohasida xalqaro tajriba boy va xilma-xildir. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlarida bu yo'nalish davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, Germaniyada kasalxona maktablari (nemis tilida rasman Klinikschule yoki

Krankenhausschule (shuningdek, ba'zi hududlarda Schule für Kranke — kasal bolalar uchun maktab) tizimi yaxshi rivojlangan bo'lib, har bir kasalxona qoshida maxsus ta'lim xodimlari ishlaydi. Bu maktablarda o'qituvchilar bolaning sog`lig'i holatiga qarab dars jadvalini tuzadi va ta'lim dasturini davolanish jarayoniga moslashtiradi. 2023 yilgi statistik ma'lumotlarga ko'ra, Germaniyada 300 dan ortiq kasalxona maktabi mavjud bo'lib, ularda har yili 50 mingdan ziyod bola ta'lim oladi[2].

AQShda esa gospital pedagogika "Individual Ta'lim Rejasi" (Individualized Education Plan - IEP) tizimi orqali amalga oshiriladi. Ushbu tizimda har bir kasal bolaga alohida dastur tuziladi va o'qituvchilar, psixologlar hamda tibbiy xodimlar jamoaviy ravishda ishlaydi. Masalan, Boston Bolalar Kasalxonasi (Boston Children's Hospital) da ta'lim dasturlari nafaqat akademik bilimlarni, balki san'at, musiqa va jismoniy mashqlarni ham o'z ichiga oladi, bu esa bolalaring ijodiy va emotsional rivojlanishiga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq uning Prezidenti va hukumati tomonidan onalik va bolalikni huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy himoya qilish, xotin-qizlarning har tomonlama kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularning jamiyatdagi rolini oshirish masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Ayniqsa nogironligi bor bolalar va alohida e’tiborga molik bolalar to’g’risida bir qator qonunlar qabul qilindi [1].

O'zbekiston tajribasi, gospital pedagogika hali to'liq tizimli shaklda rivojlanmagan bo'lsa-da, bu yo'nalishda muayyan qadamlar qo'yilmoqda.

Respublika bolalar onkologiya markazi kabi muassasalarda kasal bolalar uchun maxsus darslar tashkil etiladi. Shu bilan birga, masofaviy ta'lim platformalari orqali uzoq muddatli davolanishda bo'lgan bolalarga darslar taklif etilmoqda.

Masalan, 2022 yilda O'zbekistonda "Xalq ta'limi vazirligi" tomonidan surunkali kasalliklarga chalingan bolalar uchun maxsus ta'lim dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unda 500 dan ortiq bola qamrab olingan. Ammo milliy tajribada bir qator muammolar mavjud: masalan, maxsus tayyorlangan pedagoglarning yetishmasligi, kasalxona sharoitlarida ta'lim uchun infratuzilmaning kamligi va bu sohada xabardorlikning pastligi. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, ta'limdan mahrum bo'lgan bolalaming 30 foizi surunkali kasalliklar yoki nogironlik tufayli maktabga bora olmaydi. Bu holat ta'limdagi tengsizlikni yanada kuchaytiradi va ijtimoiy adolatsizlikka olib keladi. Gospital pedagogika esa ushbu tengsizlikni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Gospital pedagogikasida o'qitish usullari o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatlariga mos ravishda tanlanadi

Xalqaro tajribadan foydalangan holda, O'zbekistonda gospital pedagogikani rivojlantirish uchun davlat dasturlari ishlab chiqildi va pedagoglar uchun maxsus kurslar tashkil qilindi. Hamma pedagogika institutlarida ush bu fanni o’qitish yo’lga qo’yildi. Gospital pedagogikaning samaradorligini tahlil qilishda bir qator dalillar va misollarga tayanish mumkin.

Ayniqsa o'yin, art-terapiya va individual ta'lim kabi usullar bu sohada eng samarali hisoblanadi. *O'yin usuli* gospital ta'limida o'quvchilaring motivatsiyasini oshirish va stressni kamaytirish uchun keng qo'llaniladi. Masalan, matematik tushunchalarni o'rgatishda o'yin kartalari yoki raqamli boshqotirmalar ishlatilishi mumkin. Bu usul nafaqat bilimlarni

mustahkamlashga yordam beradi, balki bolaning psixologik holatini yaxshilaydi.Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'yin usuli ayniqsa kichik yoshdagi bolalar uchun samaralidir.

Masalan, amerikalik pedagog L. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, o'yin orqali bola o'z muhitini boshqarish va moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. O'zbekistonda bu usul maxsus maktablarda qo'llaniladi, ammo gospital sharoitida uning qo'llanilishi hali cheklangan darajada qolmoqda [3].

Art-terapiya gospital pedagogikasida psixologik yordam va ta'limni birlashtirish uchun muhim vositadir. Rasm chizish, musiqa tinglash yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanish orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini ifodalaydi va o'quv jarayoniga jalb qilinadi. Masalan, biologiya darsida o'simliklar haqida o'rganayotganda, o'quvchi o'simlik rasmini chizishi mumkin, bu esa uning mavzuni yaxshiroq eslab qolishiga yordam beradi.

Xalqaro tajribada, AQShda art-terapiya gospital ta'limining ajralmas qismiga aylangan. Bu usul nafaqat ta'lim, balki reabilitatsiya jarayonida ham qo`llaniladi. O'zbekistonda art-terapiya psixologlar tomonidan ko'proq ishlatiladi, lekin uni ta'lim jarayoniga kengroq integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud. O‘yin shunchaki vaqtni mazmunli o‘tkazish vositasi bo‘lib qolmasligi, balki muayyan ta’limiy natijaga yo‘naltirilishi zarur. Shu sababli har bir o‘yinning maqsadi, mazmuni, bajarish tartibi, davomiyligi va kutilayotgan natijasi oldindan belgilanadi [4]. Gospital maktabi sharoitida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning asosiy pedagogik *shartlaridan biri* — individual yondashuvdir. Bir xil kasallik yoki davolanish sharoitidagi o‘quvchilarning ham jismoniy va psixologik imkoniyatlari bir xil bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi o‘quvchining kunlik holatini, charchoq darajasini va ta’lim faoliyatiga tayyorligini hisobga olishi kerak. *Ikkinchi muhim shart* — emotsional qulay muhit yaratish. O‘yin jarayonida o‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmasligi, o‘z fikrini erkin ifodalashi va topshiriqni bajarishga ijobiy munosabatda bo‘lishi kerak. O‘qituvchining rag‘batlantiruvchi munosabati o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga yordam beradi. *Uchinchi shart* — o‘yin va ta’lim mazmunining uyg‘unligi. O‘yin topshiriqlari o‘quv dasturidagi mavzular bilan bevosita bog‘lanishi lozim. Masalan, matematika darsida mantiqiy masalalar va matematik viktorinalardan, ona tili darsida so‘z tuzish va gaplarni to‘ldirish o‘yinlaridan, o‘qish darsida qahramonlar obrazini ifodalashga asoslangan rolli o‘yinlardan foydalanish mumkin. To‘rtinchi shart — o‘quvchining mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish. O‘yin davomida o‘quvchi tayyor javobni olish emas, balki izlanish, taxmin qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish orqali natijaga erishishi kerak. Bu esa bilish faolligining muhim ko‘rsatkichlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, gospital maktabi sharoitida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 4-sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayonidagi faolligini qo‘llab-quvvatlash, bilim olishga qiziqishini kuchaytirish va bilish jarayonlarini rivojlantirish uchun pedagogik imkoniyat yaratadi.

Bunda o‘yin texnologiyalarining samaradorligi ularning o‘quvchining individual imkoniyatlariga mosligi, ta’limiy maqsadga yo‘naltirilganligi va pedagog tomonidan tizimli tashkil etilishiga bog‘liq [5]. O‘yin texnologiyalari orqali rivojlantiriladigan bilish faolligi komponentlari 4-sinf o‘quvchilarining bilish faolligini bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlar asosida ko‘rib chiqish mumkin:

- komponent mazmuni rivojlantiruvchi o‘yinlar motivatsion bilim olishga qiziqish va ehtiyojli viktorina fanga qiziqishni uyg’otadi;
- “Savol-javob” o’yini kognitiv bilim, tafakkur, xotira va diqqatni oshiradi;
- “Ortiqchasini top”, “Mantiqiy zanjir” faoliyatli mustaqil topshiriq bajarish va muammoni hal qilish muammoli o‘yinlar kommunikativ fikr almashish va muloqot qilish rolli va guruhli o‘yinlar refleksiv o‘z faoliyatini baholash va xulosa chiqarishga o’rgatadi.

Mazkur komponentlarning izchil rivojlantirilishi o‘quvchining ta’lim jarayonidagi subyektiv faolligini oshirishga xizmat qiladi. Gospital maktabida esa ushbu jarayon o‘quvchining sog‘lig‘i va individual holatiga moslashtirilgan holda olib borilishi zarur.

Shu asosda o‘yin texnologiyalarini gospital maktabi ta’lim jarayoniga joriy etish: *maqsad → o‘yin mazmuni → o‘quvchining faol ishtiroki → refleksiya → natijani baholash* kabi ketma-ketligida tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o‘yinni oddiy ko‘ngilochar faoliyatdan ta’limiy va rivojlantiruvchi pedagogik texnologiya darajasiga olib chiqadi.

Gospital maktabi sharoitida 4-sinf o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirish maqsadida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini qiziqarli, moslashuvchan va o‘quvchi uchun psixologik jihatdan qulay tashkil etish imkonini beradi.

O‘yinlarni tanlashda o‘quvchining yoshi, individual imkoniyatlari, davolanish holati va darsga bo‘lgan tayyorgarligi hisobga olinadi:

1. ***“Ortiqchasini top”*** o‘yini Maqsad: o‘quvchilarning diqqat, tafakkur, taqqoslash va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘quvchiga ma’lum bir guruhga mansub bir nechta so‘z yoki rasm beriladi. Ularning orasidan mazmun jihatidan boshqalardan farq qiladigan elementni topish talab etiladi.

Misol*: Olma — nok — shaftoli — sabzi — uzum*. O‘quvchi “sabzi” so‘zini tanlaydi, chunki qolganlari mevalar hisoblanadi.Ushbu o`yin mantiqiy fikrlash, diqqat, tahlil qilish va guruhlashtirish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. “Mantiqiy zanjir” o‘yini Maqsad: o‘quvchilarning sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar yoki hodisalarni aralashtirib beradi. O‘quvchi ularni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtiradi.

Misol: *Urug‘→ nihol → o‘simlik → gul → meva*. O‘quvchi berilgan tushunchalarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtiradi. Rivojlantiradi: tafakkur, xotira, diqqat va sabab-oqibatni tushunish.

3. ***“Xatoni top”*** o‘yini Maqsad: o‘quvchilarning kuzatuvchanligi va mustaqil fikrlashini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi ataylab xato kiritilgan gap, misol yoki ma’lumotni taqdim etadi. O‘quvchi xatoni aniqlaydi va to‘g‘ri variantini aytadi.

Misol: “Qishda daraxtlar yashil barg chiqaradi.” O‘quvchi gapdagi xatoni aniqlab, fikrni to‘g‘rilaydi. Rivojlantiradi: kuzatuvchanlik, tahlil qilish va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini.

4. “***Savolga tez javob ber”*** o‘yini Maqsad: o‘quvchilarning xotirasi, diqqati va tezkor fikrlashini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi o‘tilgan mavzu yuzasidan qisqa savollar beradi. O‘quvchi imkon qadar tez va aniq javob berishi kerak.

Misollar: — Bir yilda nechta fasl bor? — 1 metrda necha santimetr bor? — Ot qanday so‘roqqa javob beradi? — O‘zbekistonning poytaxti qaysi shahar? O‘yin gospital sharoitida uzoq davom ettirilmaydi. O‘quvchining holatiga qarab 3–5 daqiqa davomida tashkil etilishi mumkin.

5**. “So‘zni davom ettir”** o‘yini Maqsad: lug‘at boyligi, xotira va ijodiy tafakkurni rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi biror so‘z yoki gapning boshlanish qismini aytadi. O‘quvchi uni davom ettiradi.

Misol: O‘qituvchi: “Bahor keldi va…” O‘quvchi: “…tabiat uyg‘ondi.” Yoki: O‘qituvchi: “Kitob — bu…” O‘quvchi o‘z fikrini davom ettiradi. Rivojlantiradi: nutq, tasavvur, ijodiy va mustaqil fikrlash.

6. “Kim chaqqon?” o‘yini Maqsad: diqqatni jamlash va bilimlarni tezkor qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi bir nechta topshiriqlarni ketma-ket beradi. O‘quvchi ularni imkon qadar tez va to‘g‘ri bajaradi.

Misol: 5 × 4 =? 36: 6 =? 1 soat =? daqiqa 100 santimetr = ? metr Gospital maktabida mazkur o‘yin raqobatga emas, o‘quvchining o‘z natijasini yaxshilashiga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

7. “Topishmoqlar olami” o‘yini Maqsad: mantiqiy tafakkur, tasavvur va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi predmet yoki hodisani bevosita nomlamasdan, uning belgilarini ta’riflaydi. O‘quvchi javobni topadi.

Misol: “Qishda yog‘adi, bahorda eriydi. Bu nima?” Javob: qor. Topishmoqlar o‘quvchilarning yoshiga va bilim darajasiga mos tanlanadi.

8. “Sehrli katakchalar” o‘yini Maqsad: diqqat, xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: katakchalarga harflar, sonlar yoki rasmlar joylashtiriladi. O‘quvchidan ma’lum tartib asosida kerakli belgilarni topish so‘raladi.

Misol: harflar orasidan faqat meva nomlarini tashkil qiluvchi harflarni topish yoki berilgan sonlar ichidan juft sonlarni ajratish. Rivojlantiradi: vizual idrok, diqqat va tahliliy fikrlash.

9. **“Kimman?”** o‘yini Maqsad: savol berish, muloqot qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: o‘qituvchi biror predmet, hayvon, kasb yoki qahramonni tanlaydi. O‘quvchi uni topish uchun savollar beradi.

Masalan: — Men tirik mavjudotmanmi? — Men hayvonmanmi? — Men uy hayvonimanmi? Savollar yordamida o‘quvchi to‘g‘ri javobni aniqlaydi.

10. **“Bugun nimani bildim?**” refleksiv o‘yini Maqsad: o‘quvchining o‘z ta’limiy faoliyatini tahlil qilish va refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish. O‘tkazish tartibi: dars yakunida o‘quvchiga uchta savol beriladi: Bugun nimani bilib oldim? Menga qaysi topshiriq yoqdi? Qaysi topshiriq menga qiyin bo‘ldi? O‘quvchi javoblarini og‘zaki yoki yozma shaklda ifodalashi mumkin. Mazkur o‘yin o‘quvchining o‘z faoliyatini baholashi va keyingi ta’lim jarayoniga bo‘lgan munosabatini aniqlash imkonini beradi.

Gospital maktabida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishda quyidagi talablarga rioya qilish maqsadga muvofiq: o‘yin davomiyligini o‘quvchining jismoniy holatiga moslashtirish; murakkab topshiriqlarni bosqichma-bosqich berish; o‘quvchini majburlamaslik; topshiriqlarni individual imkoniyatlarga moslashtirish; o‘quvchining muvaffaqiyatini rag‘batlantirish; o‘yinni aniq ta’limiy maqsad bilan bog‘lash; ortiqcha jismoniy va ruhiy zo‘riqishning oldini olish; o‘yin yakunida qisqa refleksiya tashkil etish[6].

Shunday qilib, o‘yin texnologiyalari gospital maktabida 4-sinf o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirishda ta’limiy, rivojlantiruvchi va motivatsion vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. O‘yinlarning mazmunini o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirish esa ta’lim jarayonining samarali va qulay tashkil etilishiga xizmat qiladi

XULOSA: O‘tkazilgan nazariy va metodik tahlillar asosida gospital maktabi sharoitida 4-sinf o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari aniqlandi. Tadqiqot jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirish, o‘quv topshiriqlarini bajarishga qiziqishini oshirish hamda bilish jarayonlarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi kuzatildi. O‘yinli topshiriqlarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarda diqqatni jamlash, berilgan ma’lumotni eslab qolish, predmet va hodisalarni taqqoslash, ortiqcha yoki noto‘g‘ri elementni aniqlash, mantiqiy bog‘lanishlarni topish va mustaqil xulosa chiqarish kabi faoliyatlarning namoyon bo‘lishi kuchaydi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari gospital maktabi sharoitida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 4-sinf o‘quvchilarining bilish faolligini rivojlantirishning amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur xulosalarni miqdoriy jihatdan asoslash uchun tajriba va nazorat guruhlarida o‘quvchilarning bilish faolligi ko‘rsatkichlarini dastlabki va yakuniy bosqichlarda o‘lchash hamda natijalarni statistik tahlil qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Иванова Н.А., Сакердонова А.С. Игровые технологии как средство развития познавательной активности младшего школьника // Научный электронный журнал «Меридиан». — 2018. — № 3 (14). — С. 63–65.
2. Иногамова Д.Р. Госпитальная педагогика: учебное пособие. — Ташкент: Bookmaniy print, 2024. — 240 с.
3. Лоскутов А.Ф., Долуев И.Ю. Госпитальная педагогика. Обучение длительно болеющих детей: методические материалы / под ред. Е.В. Москвиной. — Москва: ФГБНУ «ИВФ РАО», 2023. — 24 с.
4. Щукина Г.И. Активизация познавательной деятельности учащихся в учебной деятельности. — Москва: Просвещение, 1998. — 123 с.
5. Шариков С.В. Педагогическая поддержка образовательных возможностей детей, находящихся на длительном лечении в медицинских стационарах // Альманах Института коррекционной педагогики. — 2020. — № 40. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» от 23 сентября 2020 года № ЗРУ-637.
6. Kapelaki U. A Novel Idea for an Organized Hospital/School Program for Children with Malignancies: Issues in Implementation // Pediatric Hematology and Oncology. — 2003. — Vol. 20. — P. 79–87.